

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831536>

**Shodmonov Davron Mamatmurod o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti*

*3-kurs talabasi*

*Number ☐: +998901240114*

*Email ✉ ☐: davronshodmonov0114@gmail.com*

**Anontatsiya:** *Mazkur maqolada online arbitrajning muhim jihatlari va undagi jarayonlarining olib borilishi va uning huquqiy tartibi haqida muhokama qilindi. Ushbu mavzuda olib borilgan izlanishning muhimligi shundaki, hozirgi kunda online arbitraj sohasi keng tarqalib bormoqda va undagi jarayonlar va uning ijro masalalari, huquqiy asoslari borasida muhokamalar mavjud bo'lib, ushbu maqola shu kabi savollarga javob berish uchun asos bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda online arbitrajning huquqiy jarayonlarini o'rganish bilan bir jarayonda ananaviy arbitraj qoidalari ham o'rganilib ikkalasi solishtirildi. Shuningdek, ushbu maqolada online arbitrajning turlari haqida ham izlanish olib borilgan va ularning farqli va o'xshash, ijobiy va salbiy jihatlari o'rganilib chiqildi. Ushu maqollarni yozishda xalqaro xujjatlar va ularning rasmiy sharxlaridan, chet el olimlarining shu sohadagi ilmiy izlanishlaridan foydalanildi.*

**Kalit so'zlar:** *Online arbitraj, offline arbitraj, UNICTRAL, texnik eslatmalar, BMT, ODR, elektron pochta, neytral shaxs, muzokara, majburiy online arbitraj, majburiy bo'lmagan online arbitraj.*

### **Kirish**

Umuman olganda online arbitraj ananaviy arbitrajdan farq qiladi. Online arbitraj bilan ananaviy arbitraj deyarli bir xil va online arbitraj ananaviy arbitrajdan umumiy tashqi tuzilishidan farq qiladi degan fikr to'g'ri emas. Online arbitrajlar tuzilishi, uning olib borilishi, huquqiy asoslari va jarayonlari jihatidan ananaviy arbitrlarlardan farq qiladi. Tabiiyki, online va ananaviy arbitrajlarining umumiylikka asoslangan huquqiy asoslari mavjud bo'lishiga qaramasdan, ba'zi jarayonlar ma'lum bir arbitrajga tegishli hisoblanadi. Shu sababdan, har bir o'ziga xoslik jihatlarning huquqiy asoslarini o'rganib chiqish dolzarb hisoblanadi. Online arbitrajning o'zining huquqiy asoslari mavjud bo'lib, bu asoslar protsess jarayonida namoyon bo'ladi va ba'zi holatlarda shu soha olimlarining fikr va nazariyalari asosida shakllangan.

Online arbitrajlarining huquqiy shakli va ish olib borish jarayonlarining huquqiy asosi sifatida UNCITRAL 2016-yildagi qirq to'qqizinchi sessiyasida nizolarni onlayn hal qilish bo'yicha Texnik eslatmalarni yakunladi va qabul qildi. Ushbu eslatmalar online arbitraj jarayonlarini olib borishni belgilamasdan, uni bevosita hal qilish uchun ham

asos sifatida keltirilib o‘tilgan. Endigi navbatda online arbitraj jarayonlarining olib borishi va ularning huquqiy asoslari haqida muhokama qilamiz.

### **Murojaat qilish**

ADR(alternative dispute resolution)ga ko‘ra, tomonlarning arbitrajga murojaat qila olishlarining huquqiy asosi o‘zaro kelishuv asosida rozilik hisoblanadi. Bunda tomonlar arbitrajga murojaat qilish uchun rozilik bildiradi va arbitraj bitimini tuzishadi. Online arbitrajda bu jarayon qanday amalga oshadi?

**Agar arbitraj onlayn tarzda o‘tkazilsa, tomonlar elektron pochta orqali qonunni tanlash to‘g‘risida muhokama qilishlari, ular tomonidan raqamli imzolangan hakamlik bitimini onlayn tarzda tuzishlari va geografik hududni aniqlashlari kerak<sup>45</sup>.** Online arbitrajda asosiy makon internet makoni hisoblangani uchun barcha hujjata va harakatlar online tarzda amalga oshiriladi. Shu sababli, kelishuv ham ko‘p hollarda elektron pochta yoki boshqa elektron aloqa turlari faks, telefon aloqa yo‘li boshqa usullar kelishilib olinadi. Unda asosiy masalalar; ish ko‘riladigan arbitraj, til, tegishli huquq va boshqalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Ushbu jarayondan so‘ng tariflar online sudga murojaat qilishlari kerak bo‘ladi.

Da‘vogar ishni boshlash uchun ODR(online dispute resolution) ga elektron tarzda murojaat qilishi va quyidagilarni keltirishi mumkin;

**(a)Da‘vogarning nomi va elektron manzili va da‘vogarning ODR protsessida da‘vogar uchun harakatga vakolatli vakil (agar mavjud bo‘lsa);**

**(b)Javobgarning ismi va elektron manzili va da‘vogarga ma‘lum bo‘lgan shikoyatning vakili (agar mavjud bo‘lsa);**

**(c)Da‘vo qo‘zg‘atilgan asoslar;**

**(d)nizoni hal qilish uchun taklif qilingan har qanday yechimlar;**

**(e)Da‘vogarning ish yuritishning afzal ko‘rgan tili; va**

**(f)Imzo yoki identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilishning boshqa ishlari da‘vogar va yoki da‘vogar vakilining guvohnomasi<sup>46</sup>.** Ushbu da‘vo talabi ODR platformasiga kelib tushganidan so‘ng ODR ma‘muri tomonlarga bu haqida xabar yetkazganidan so‘ng protsess boshlangan deb hisoblanadi. Bundan so‘ng javobgar ma‘murdan xabar olgandan so‘ng ODR platformasiga o‘zining davosini kiritishi lozim bo‘ladi. U qarshi da‘vo, o‘zini oqlashga yetarli bo‘lishi mumkin bo‘lgan dalillar, o‘zining yoki vakilining guvohnomalarini kiritishi mumkin. Shuningdek javobgar agarda da‘vogar himoya usullarining turli usullaridan foydalanadigan bo‘lsa ularga qarshi xabarnoma yoki taqdimnolar kiritish huquqiga ham ega. Bu orqali javobgar da‘vogar tomonidan qilinadigan da‘vo va savollarga oson yechim topish imkonini beradi. Hujjatlar platformaga qabul qilinadi, so‘ng hujjatlar rasmiylashtirilib bo‘lganidan so‘ng muzokara olib boriladi.

<sup>45</sup> PROJECT ASSIGNMENT OFPROJECT ASSIGNMENTS ONLINE ARBITRATION. Vivek Shukla LL.M .NLSIU Bangalore 23 bet .

<sup>46</sup> UNCITRAL. Texnik eslatmalar Onlayn nizolarni hal qilish.BIRLASHGAN MILLATLAR TOSHKILOTI Nyu-York, 2017-yil . 9 bet . 5-bet .



**Muzokara**

Tomonlarning ODR platformasiga murojaat qiladi kelib tushganidan soʻng sud maʼlum bir vaqtni tayinlab tomonlarga yetkazadi va ularning shu vaqtda hozir boʻlishliklari tushuntiriladi. Muzokaralar ODR platformasida olib boriladi va bu jarayonda tomonlarga oʻzaro kelishib olishlari taklif qilinadi va oʻzaro eshituvlar dalillar keltirish amalga oshiriladi. **Agar platforma orqali muzokaralar biron-bir sababga koʻra muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda (shu jumladan, ishtirok etmaslik yoki oqilona vaqt ichida kelishuvga erisha olmaslik) yoki nizoning bir yoki ikkala tomoni toʻgʻridan-toʻgʻri keyingisiga oʻtishni soʻrsa, osonlashtirilgan hisob-kitob bosqichi boshlanishi mumkin**<sup>47</sup>. Bu bosqichga oʻtishning asosiy sababi ish tezroq xolis yordamida hal qilish hisoblanadi. Chunki tomonlarning biri ishni choʻzish maqsadida ishga kelmaslik holatlari yoki tomonlarning murosaga kela olmasliklari tufayli ularning soʻroviga binoan ham bu jarayonni tezlashtiradigan neytral shaxs tayinlanishi mumkin.

**Neytral shaxs**

**Neytral shaxs** ishni tezroq va oqilona hal qilish va xarajatlarni kamaytirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu holatda neytral shaxsning oʻziga ham UNICTRALning texnik eslatmalarida ham maʼlumot va tushunchalar keltirilib oʻtilgan boʻlib, bu shaxs ishni tezroq va kam xarajatlar bilan oqilona hal qiladigan shaxs boʻlib, bunday shaxsni ish qiyinlashgan holatda ODRga UNICTRAL iloji boricha tezroq tayinlashni maslahat beradi. Bu shaxs oʻz sohasi boʻyicha maxsus bilimlarga, tomonlar oʻrtasidagi muammolarning hal qila olish koʻnikmasiga ega boʻlishi, ammo maxsus hujjatga ega boʻlmagan shaxs ham boʻlishi mumkinligi keltirilib otilgan. Shuningdek neytral shaxs haqida barcha maʼlumotlar va identifikatsiya kabi maʼlumotlarning zudlik bilan tomonlarga yuborilishi lozim hisoblanadi.

Texnik eslatmalarga koʻra neytral shaxsni tayinlashda ODR quyidagi jihatlarga eʼtibor berishi lozim;

- Neytral shaxsni tayinlash uchun maʼlum vaqt ajratiladi;
- Neytral shaxs ishda oʻzining xolisligini Elon qilishi kerak, mustaqilligi va xolisligiga taʼsir oʻtkazishi mumkin boʻlgan holatlarni keltirib oʻtishi lozim;
- Tomonlar neytral shaxsnkng tayinlanishiga eʼtiroz bildirishi mumkin;
- Neytral rad etilganda ODR tomonlarga boshqa shaxsni tayinlashga ruxsat berish;
- Iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun bitta ish yuzasidan bitta neytral tayinlanishi;
- Tomonlar oʻzlari istamagan maʼlumotlarni neytralga bermaydi yoki uni oshkor boʻlishini taqiqlashi mumkin;
- Agarda neytral ishdan ketsa yoki isteʼfoga chiqsa neytral qayta tayinlash dastlabki talablarga koʻra qayta tayinlanishi mumkin.

<sup>47</sup> UNCITRAL. Texnik eslatmalar Onlayn nizolarni hal qilish. BIRLASHGAN MILLATLAR TOSHKILOTI Nyu-York, 2017-yil . 9 bet . 6-bet .

Shuningdek, neytral shaxsni tayinlashda malum bir talablar bo‘lganligi bilan bir qatorda neytral shaxsda ham ma’lum bir huquq va majburiyatlar bo‘lib, ular;

- Neytral ODR qoidalariga rioya qilgan holda ish olib boradi va uni taminlashga harakat qiladi;

- Neytral keraksiz kechiktiriahnlarni oldini olishga harakat qiladi va tomonlardan ish yuritish boyich harakatlarni ham talab qilishi mumkin;

- Nizolarni hal qilishda adolatli bo‘lish va samarali harakatlarni amalga oshirish;

- Mustaqil va xolis bo‘lish, tomonlarga birdek munosabatda bo‘lish talab etiladi.

Yuqoridagi neytral shaxsni tayinlashda bu ma’lum bir qoidalar va uning majburiyatlari neytral shaxsning ishni to‘liq va mukammal hal qilishi, ishni xolisligini oshirishi va kutilmagan holatlarni hal qilishga mo‘ljallangan. Uning majburiyatlariga kelsak, neytral ishni ma’lum bir qonun qoidalar asosida ko‘rishini belgilab beradi va bu mumkin tez va haqqoniy hal qilinishiga sabab bo‘ladi. ODR sudi jarayonida neytral shaxsni tayinlash ham muhim hisoblanadi. Neytral shaxsni tayinlash huquqiy jihatdan ananaviy arbitrajdagı neytral shaxslarni tayinlash bilan bir xil amalga oshiriladi. Ammo, jarayonlar soddalashtirilgan, tezlashtiriladi va tomonlarga yon bosgan holatda amalga oshiriladi. Ya’ni, neytral shaxsni tayinlash masalani tezkor hal qilish uchun tezlikda amalga oshiriladi, iloji boricha vaqt tejashga harakat qilinadi.

#### **Tan olish va ijro etish**

Umumiy qoidaga binoan ODR ning ko‘plab masalalarida ADR da qo‘llaniladigan harakatlar amalga oshiriladi. **Onlayn hakamlık kelishuvlari ularning haqiqiyliğı, dalillari va ijro etilishi bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Ko‘pgina milliy qonunlar va xalqaro konvensiyalar hali ham arbitraj kelishuvining yozma shaklda bo‘lishini talab qiladi**”. Nyu-York Konvensiyasining 4(1)-moddasiga ko‘ra, an’anaviy tarzda talqin qilinganidek, ijro etish uchun harakat qilayotgan tomon “yozma” qarorni taqdim etishi kerak<sup>48</sup>. Bunda sud va sudyalar taqdim qilayotgan sud qarorining asl nusxasi bo‘lishi kerakligi inobatga olinadi. Ammo, umumiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, ishni ODR da boshlashdan oldin tomonlarning masofadan turib ishga ariza berishlarida tegishli hujjatlarga elektron imzo qo‘yish o‘ng ozi yetarli bo‘lganligi sababli ODR sudi qaroriga ham tomonlarning roziligini imzolovchi elektron imzoning ozi ham sud hujjatining asl nusxasi bilan tenglashtirib oladi shu sababli ijro masalasida elektron hujjatlar ham qabul qilinadi. Shuningdek, yuqorida aytilganidek umumiy qoida bo‘yicha ODR protsessual harakatlarni ananaviy arbitraj sud protsessi bilan deyarli bir xil bo‘lganligi sababli hal qiluv qarorini ijro etish masalasi 1958-yilgi New York konvensiyasining 5-moddasiga binoan hujjatlar tegishli davlatning tegishli ijro masalasini hal qiladigan organiga topshiriladi. Bu masalada huquni amalga oshiradigan joy yoki ODR qarorini ijro qiladigan joyni aniqlash muammosi yuzaga kelishi mumkin. Huquqiy va sud nuqtai nazaridan, qarorlar milliy va xorijiy arbitraj o‘rtasidagi mezonlarni ajratib turadi. Bu

<sup>48</sup> Redress & Alternative Dispute Resolution In Cross-Border E-commerce Transactions Briefing Note (IP/A/IMCO/IC/2006-206)Lilian Edwards 13\17



o'ziga xos mezon 1958 yilda Nyu-York konvensiyasida (NYC) belgilangan, chunki u xorijiy arbitraj qarorlarining bajarilishini tan oladi. Shu sababli, Nyu-York konvensiyasiga a'zo davlatlarda ushbu amaliyotni aks ettiruvchi qonunlar bo'lishi kutilmoqda, ular orqali xorijiy arbitraj qarori o'z hududida kuchga kiradi<sup>49</sup>. Bunga ko'ra tomonlar ODR hujjatini ijro etish uchun UNICTRAL ni imzolagan va a'zo mamlakatlarga arbitraj qarorini ijro etish uchun murojaat qilishi mumkin. Unda sud qarori, undagi dalillar va sud jarayoni, vakillar, neytral shaxs va shu kabi ma'lumotlar bo'lishi kerak. Tegishli organ esa shu kabi masalalarning haqiqiyliги tekshiradi va uni ijroga qaratadi yoki rad etish to'g'risida qaror chiqarishi mumkin<sup>50</sup>

### **Muammo va kamchiliklar**

Umuman olib qaraganda online arbitrajning ikki majburiy va majburiy bo'lmagan turi mavjud bo'lib, ularning protsedurasi va ijrodagi qonun qoidalari bir biridan farq qiladi. Hozir ular haqida muhokama olib boramiz.

### **Majburiy online arbitraj**

Majburiy online arbitraj arbitraj sudlarda olib boriladigan sud ishi bo'lib unda taraflar kelib chiqqan nizo yuzasidan o'z talablarini bildiradilar. Online arbitraj vaqtdan yutishi, xarajatlarning kamligi va istalgan hududdan turib qatnasha olish imkoniyati bo'lishiga qaramasdan, ushbu arbitrajning bir qancha noqulaylik tariflari mavjud bo'lib, ular ish jarayoni va ijro masalalarida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

- Birinchidan -tomonlar o'rtasida tuziladigan arbitraj kelishuvi. Tomonlar kelishuvni o'zaro online aloqa vositalari orqali tuzishadi. Bu esa ba'zi muammolarga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda ham ba'zi xalqaro hujjatlar va davlat qonunlari kelishuvlarni yozma bo'lishini talab qilishadi. Faqatgina UNICTRAL 7-moddasi 2-qismi<sup>51</sup>, Angliya va Germaniya arbitraj qonunlari elektron hujjatlarni qabul qiladi. Boshqa ko'plab davlat qonunlarida bu kabi normalar mavjud emas. Shuningdek New York konvensiyasining hozirgi versiyasida ham kelishuvlar yozma shaklda tuzilishi kerakligi aytib o'tilgan<sup>52</sup>.

- Shuningdek ushbu arbitrajda har gal ish platformada ko'rilayotganda har gal tomonlarning identifikatsiyalash uchun ko'p vaqt ketadi. Ularga shiftlar beriladi, hujjatlarni qayta tekshirish uchun vaqt sarflanishi, platformada eshittirishlar va ma'lumotlarning maxfiyligi saqlash kabi qiyinchiliklar<sup>53</sup> holatlar jarayonlarni uzoqroq davom etishiga va harakatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

<sup>49</sup> Legal Regulation of Electronic Arbitration: Recognition and Execution of its Decisions. Mokhinur Bakhranova. Senior lecturer at Intellectual property law department, Tashkent state university of law, Tashkent, Uzbekistan

<sup>50</sup> UNITED NATIONS CONFERENCE ON INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION CONVENTION ON THE RECOGNITION AND ENFORCEMENT OF FOREIGN ARBITRAL AWARDS UNITED NATIONS 1958

<sup>51</sup> [https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/06-54671\\_ebook.pdf](https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/06-54671_ebook.pdf)

<sup>52</sup> <https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf>

<sup>53</sup> ADR online Monthly. Linking Information Technology and Dispute Resolution .Online Arbitration: Binding or Non-Binding .Thomas SCHULTZ.

• Ba'zi hollarda majburiy online arbitraj qarorlari ijro etish uchun milliy sudlarga topshirilganda ular tan olinmasligi mumkin va bu holatlar protsesning yana qayta ko'rilishi va ortiqcha harajatni anglatadi.

• To'lov va mukofotlar sud va tomonlarga tolanayotganda esa, to'lovlarni amalga oshirishda qalbakilashtirish holatlari ham amalga oshishi mumkin.

#### **Majburiy bo'lmagan online arbitraj**

Shuningdek online arbitrajning tomonlar uchun majburiy bo'lmagan ammo vijdonan bajarishi va o'zaro ishonchga asoslangan turi mavjud bo'lib, bunda protses va ijro etish bosqichlari ko'p hollarda oson kechadi. Bunda tomonlar arbitraj qarori chiqqanidan so'ng o'zaro ishonchga asoslanib, ijroni o'zlari amalga oshiradi va to'lovlarni amalga oshiradi. Tomonlar kelishuvi o'z o'zidan haqiqiy hisoblanadi. Chunki, tomonlar tuzgan arbitraj kelishuvi tomonlarning o'zi tomonidan tan olishining o'zi kifoya hisoblanib, ular yakunda ijro uchun davlat organiga murojaat qilishmaydi. Bunga o'zaro ishonch asosida tuzilgan shartnoma va ixtiyoriy ijro etish vazifasi asosiy o'rin tutadi. Negaki, tomonlar sud jarayonida ishtirok etishadi va unda qabul qilingan qaror esa tavsfiyaviy bo'lib, yutqazgan tomon uni bajarishi unga yaxshi ekanligi tushuntiriladi. Yutqazgan tomon ham bunga rozi bo'lish ehtimoli yuqori chunki yana boshqatdan ish boshlansa sud qarori deyarli o'zgarmaydi, bu esa yana qo'shimcha harakat va qo'shimcha vaqt oladi. Tadbirlar esa bunga vaqt ajratishni hohlashmaydi. Shuningdek, bunday hollarda ixtiyoriy ijro masalasida ba'zi hollarda sud talab qo'yishi ham mumkin. Bu jarayonlar o'zaro huquqlarni cheklash holatida bo'ladi. Bu cheklovlar ba'zi huquqlardan mahrum qilish, katta va obro'li saytlarga kirishni taqiqlash, masalan eBay ga kirishni taqiqlab qo'yish mumkin. Bunday hollarda tadbirkor asosiy savdo bozorini yo'qotish xavfi bilan ijroni ixtiyoriy amalga oshiradi.

#### **Xulosa**

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, online arbitraj tomonlar uchun Nilufar qulay bo'lishiga qaramasdan, uning ham bazi mavjud. Online arbitrajning ikki turi mavjud bo'lib, ularning ham kamchilik va yutuqlari tahlil qilindi. Bu kabi kamchiliklar va yutuqlar UNICTRAL namunaviy qonun va buning texnikaviy eslatmalari, 1958-yilda qabul qilingan New York konvensiyasi, shuningdek ushbu sohadagi olimlarning ilmiy fikrlari va maqolalaridan va shaxsiy fikrlardan foydalanib yoritildi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib online arbitrajning protseslarining huquqiy tartibini asoslantirildi. Unga ko'ra online arbitrajning jarayonlari huquqiy asoslantirilgan va buning asosiy manbasi UNICTRAL tomonidan qabul qilingan online arbitraj haqidagi texnik eslatmalar hisoblanadi. Uning qonun va qoidalari deyarli ananaviy arbitraj bilan bir xil bo'lib, bazi hollarda farq qiladi. Online arbitrajda ish jarayonlarini olib borish va ijro etish masalalarida bazi muammolar bo'lishi bilan birga bir qancha afzalliklari borligi tahlil qilindi. Bular vaqtning tejilishi, xarajatlarning kamligi va istalgan joydan turib qatnashish mumkinligini misol keltirsak bo'ladi. Online arbitraj ham ikkiga majburiy bo'lgan va majburiy bo'lmagan arbitrajlariga bo'linishi



keltirib o‘tildi va ularning ijobiy va salbiy tomonlari keltirib o‘tildi. Yakuniy xulosaga ko‘ra esa online arbitrajning majburiy bo‘lmagan turi ish yuritish va ijro masalalarida qulay ekanligi yoritilib berildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. PROJECT ASSIGNMENT OF PROJECT ASSIGNMENTS ONLINE ARBITRATION. Vivek Shukla LL.M .NLSIU Bangalore 23 bet .
2. UNCITRAL. Texnik eslatmalar Onlayn nizolarni hal qilish. BIRLASHGAN MILLATLAR TOSHKILOTI Nyu-York, 2017-yil . 9 bet . 5-bet .
3. UNCITRAL. Texnik eslatmalar Onlayn nizolarni hal qilish. BIRLASHGAN MILLATLAR TOSHKILOTI Nyu-York, 2017-yil . 9 bet . 6-bet .
4. Redress & Alternative Dispute Resolution In Cross-Border E-commerce Transactions Briefing Note (IP/A/IMCO/IC/2006-206) Lilian Edwards 13\17
5. Legal Regulation of Electronic Arbitration: Recognition and Execution of its Decisions. Mokhinur Bakhramova. Senior lecturer at Intellectual property law department, Tashkent state university of law, Tashkent, Uzbekistan
6. UNITED NATIONS CONFERENCE ON INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION. CONVENTION ON THE RECOGNITION AND ENFORCEMENT OF FOREIGN ARBITRAL AWARDS UNITED NATIONS 1958
7. [https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/06-54671\\_ebook.pdf](https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/06-54671_ebook.pdf)
8. <https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf>
9. ADR online Monthly. Linking Information Technology and Dispute Resolution .Online Arbitration: Binding or Non-Binding .Thomas SCHULTZ.